**Keywords:** Speech development, mental process, child, speech, month, stage, years, behavior, words.

Речевая функция играет важную роль в психическом развитии ребенка, в процессе которого происходит становление познавательной деятельности, способности к понятийному мышлению. Полноценное речевое общение является необходимым условием осуществления нормальных социальных человеческих контактов, а это, в свою очередь, расширяет представления ребенка об окружающей жизни. Овладение ребенком речью в определенной степени регулирует его поведение, помогает спланировать адекватное участие в разных формах коллективной деятельности.

Поэтому выраженные отклонения в речевом развитии ребенка имеют самые негативные последствия:

- отстает психическое развитие ребенка:



- замедляется формирование высших уровней познавательной деятельности:

- появляются нарушения эмоционально-волевой сферы, что приводит к формированию особых личностных качеств (замкнутости, эмоциональной неустойчивости, чувства ущербности, нерешительности и т.д.):

- возникают трудности в усвоении письма и чтения, что снижает успеваемость ребенка и нередко приводит к второгодничеству.

В литературе вопросам поэтапности становления речи при ее нормальном развитии уделяется достаточно много внимания. В монографии А.Н. Гвоздева, в работах Г.Л. Розенгард-Пупко, Д.Б. Элькониной, А.А. Леонтьева, Н.Х. Швачкина, В.И. Бельтюкова, К.И. Чуковского и др. подробно описано становление речи у детей, начиная с самого раннего детства. Эти авторы с разных позиций рассматривают и определяют этапы речевого развития. Например, А.Н. Гвоздев подробно изучает последовательность усвоения ребенком частей речи, структур предложений, характер их грамматического оформления. В зависимости от этого он предлагает свою периодизацию.

Г.Л. Розенгард-Пупко рассматривает два этапа формирования речи: до 2-х лет - подготовительный: от 2-х лет и далее - этап самостоятельного становления речи.

Опираясь на исследования А.А. Леонтьева, можно условно выделить ведущие периоды речевого развития и в каждом из них определить ту симптоматику, которая должна настораживать педагогов и родителей в процессе общения с ребенком.

Мы остановимся более подробно на четырех этапах, выделенных данным исследователем.

#### **Подготовительный этап (с момента рождения до года)**

Ребенок появляется на свет, и свое появление он знаменует криком. Крик - первая голосовая реакция ребенка. И крик, и плач ребенка активизируют деятельность артикуляционного, голосового, дыхательного отделов речевого аппарата.

Поэтому, если в разделе «анамнестические данные» указывается, что ребенок родился в асфиксии и сразу не закричал, то эта информация уже может быть важным диагностическим симптомом для логопеда.

Период «гуления» отмечается у всех детей. Уже в 1,5 месяца, а затем в 2-3 месяца голосовые реакции ребенок проявляет в воспроизведении таких звуков, как а, а-бм, бм, бль, у-гу, бу и т.д. Именно они потом являются основой



для становления членораздельной речи. «Гуление» у всех детей народов мира одинаково.

В 4 месяца усложняются звуковые сочетания: появляются новые. типа гн, агн, ля, аля. рн и т.д. Ребенок в процессе «гуления» как бы играет со своим артикуляционным аппаратом, по несколько раз повторяет один и тот же звук, получая при этом удовольствие. Гулит ребенок тогда, когда он сухой, выспавшийся, накормлен и здоров. Если рядом находится кто-то из родных и начинает «разговаривать» с малышом, тот с удовольствием слушает звуки и как бы «подхватывает» их. На фоне такого положительного эмоционального контакта малыш начинает подражать взрослым, пытается разнообразить голос выразительной интонацией.

Чтобы развить навыки «гудения», маме рекомендуется и так называемое «зрительное общение», во время которого ребенок всматривается в мимику взрослого и пытается воспроизводить ее. В своих работах О.И. Тихеева сравнивает ребенка в период «гуления» с музыкантом, настраивающим свой инструмент.

При нормальном развитии ребенка «гуление» постепенно переходит в лепет. В 7-8,5 месяцев дети произносят слоги типа ба-ба. дя-дя, де-да и т.д., соотнося их с определенными окружающими людьми. Лепет - это не механическое воспроизведение слоговых сочетаний, а соотнесение их с определенными лицами, предметами, действиями. «Ма-ма» (мима) - говорит ребенок, и это относится именно к маме. В процессе общения со взрослыми ребенок постепенно пытается подражать интонации, темпу, ритму, мелодичности, а также воспроизводить звуковые элементы звучащей речи окружающих. В 9-10 месяцев расширяется объем лепетных слов, которые ребенок пытается повторить за взрослым.

В 8,5-9 месяцев лепет носит модулированный характер с разнообразными интонациями. Но не у всех детей этот процесс однозначен: при снижении слуховой функции гуление «затухает», и это нередко является диагностическим симптомом. Так, если на консультацию приводят ребенка безречевого в 2.5-3 года, который не понимает обращенную к нему речь и не говорит, важно выяснить, не пропадало ли у него «гуление» в раннем возрасте. В подобных случаях необходимо обязательно сделать аудиограмму.

В исследованиях специалистов по лингвистике детской речи определена основная последовательность ее формирования: от стадии лепета до 7 лет (А.Н. Гвоздев, Е.И. Исенина, Н.И. Лепская, С.Н. Цейтлин, А.М. Шахнарович).



### Преддошкольный этап (от года до 3 лет)

В этот период расширяется объем лепетных слов, используемых ребенком. Данный этап характеризуется повышенным вниманием ребенка к речи окружающих, усиливается его речевая активность. Употребляемые ребенком слова многозначны: одновременно одним и тем же лепетным сочетанием ребенок обозначает несколько понятия: «бах» - упал, лежит, споткнулся; «дай» - отдай, принеси, подай; «биби» - идет, лежит, катается, машина, самолет, велосипед.

После полутора лет наблюдается рост активного словаря детей, появляются первые предложения, состоящие из аморфных слов-корней: «Папа, ди» (Папа, иди), «Ма, да, кх» (Мама, дай кису).

Как показывают исследования, дети не сразу овладевают правильной речью: одни явления языка усваиваются раньше, другие позже. Это объясняется тем, что чем проще по звучанию и структуре слова, тем они легче запоминаются детьми. В этот период особенно важную роль играет совокупность следующих факторов:

- механизм подражания словам окружающих,
- сложная система функциональных связей, обеспечивающих осуществление речи:
- благоприятные условия, в которых воспитывается ребенок (доброжелательная обстановка, внимательное отношение к ребенку, полноценное речевое окружение, достаточное общение со взрослыми).

Анализируя количественные показатели роста лексического запаса детей в этом возрасте, можно привести следующие данные:

- полтора года - 10-15 слов;
- к концу второго года - 30 слов;
- к трем годам - примерно 100 слов.

Таким образом, в течение полутора лет происходит количественный скачок в расширении словаря детей.

Характерным показателем активного речевого развития детей на этом этапе является постепенное формирование грамматических категорий.

Можно выделить в этот период этап «физиологического аграмматизма», когда ребенок пользуется в общении предложениями без соответствующего грамматического оформления их: «Мама, дай кука» (Мама, дай куклу), «Вова нет тина» (У Вовы нет машины).





При нормальном речевом развитии этот период длится всего несколько месяцев и к 3 годам ребенок самостоятельно употребляет наиболее простые грамматические конструкции.

Многие родители оценивают речевое развитие своего ребенка только по степени правильности звукопроизношения. И в этом они ошибаются, поскольку показателем становления детской речи является своевременное развитие у ребенка способности использовать свой лексический запас в разных структурах предложений. Уже в 2,5- 3 годам дети пользуются трех-четырёхсловными предложениями, используя частичные грамматические формы (иди - идет – идем - не иду; кукла-кукле-куклу).

В 1-3 года ребенок многие звуки родного языка переставляет, опускает, заменяет более простыми по артикуляции. Это объясняется возрастным несовершенством артикуляционного аппарата, недостаточным уровнем восприятия фонем. Характерным для этого периода является достаточно стойкое воспроизведение интонационно-ритмических, мелодических контуров слов.

Например: касянаи (космонавт), пиямида (пирамида), итая (гитара), тита яська (Чебурашка), синюська (свинюшка).

Как отмечает Н.С. Жукова, «с момента появления у ребенка возможности правильно строить несложные предложения и изменять слова по падежам, числам, типам и временам происходит качественный скачок в развитии речи».

Таким образом, к концу преддошкольного периода дети общаются между собой и окружающими, используя структуру простого распространенного предложения, употребляя при этом наиболее простые грамматические категории речи.

Родители и воспитатели должны быть информированы о том, что наиболее благоприятный и интенсивный период в развитии речи ребенка падает на первые 3 года жизни. Именно в этот период все функции центральной нервной системы в процессе их естественного формирования наиболее легко поддаются тренировке и воспитанию. Если условия развития в это время неблагоприятны, то формирование речевой функции настолько искажается, что в дальнейшем не всегда удается в полном объеме сформировать полноценную речь.

В три года практически заканчивается анатомическое созревание речевых областей мозга. Ребенок овладевает главными грамматическими формами родного языка, накапливает определенный лексический запас. Поэтому, если в



2,5-3 года ребенок общается только с помощью лепетных слов и обрывков лепетных

предложений: гаки (глазки), ноти (ножки), око (окно), дев (дверь), ути (руки); да тина (дай машину) - необходимо немедленно проконсультировать его у логопеда, проверить физиологический слух и организовать коррекционные занятия в условиях ясельной или дошкольной логопедической группы. Оставлять без специальной помощи такого ребенка нельзя, т.к. будет упущен самый благоприятный период в его речевом развитии.

#### **Дошкольный этап (от 3 до 7 лет)**

Этот период характеризуется наиболее интенсивным речевым развитием детей. Нередко наблюдается качественный скачок в расширении словарного запаса. Ребенок начинает активно пользоваться всеми частями речи, постепенно формируются навыки словообразования.

Некоторые авторы выделяют этап детского словотворчества, повышенного интереса к языковым явлениям и обобщениям (Т.Н. Ушакова, С.Н. Цейтлин, К.И. Чуковский и др.). Процесс усвоения языка протекает так динамично, что после трех лет дети с хорошим уровнем речевого развития свободно общаются не только при помощи грамматически правильно построенных простых предложений, но и многих видов сложных предложений, с использованием союзов и союзных слов (чтобы, потому что,..., который и т.д.):

- Я нарисую Тамусю зеленкой, потому что она все время болеет.
- Около ушек у меня волосики будут длинные, так как это мои завлекалочки.
- Мы все превратимся в сосульки, если подует злой и сердитый ветер.

В это время активный словарь детей достигает 300-400 слов, формируется более дифференцированное употребление слов в соответствии с их значениями, совершенствуются процессы словоизменения.

В возрасте пяти-шести лет высказывания детей достаточно пространные, улавливается определенная логика изложения. Нередко в их рассказах появляются элементы фантазии, желание придумать эпизоды, которых в действительности не было.

В дошкольный период наблюдается достаточно активное становление фонетической стороны речи, умение воспроизводить слова различной слоговой структуры и звуко наполняемости. Если у кого-то из детей и возникают при этом ошибки, то они касаются наиболее трудных, мало



употребительных и чаще всего незнакомых для них слов. При этом достаточно исправить ребенка, дать образец ответа и немного «поучить» его правильно произносить это слово, и он быстро введет это новое слово в самостоятельную речь.

Развивающийся навык слухового восприятия помогает контролировать собственное произношение и слышать ошибки в речи окружающих. В этот период формируется языковое чутье, что обеспечивает уверенное употребление в самостоятельных высказываниях всех грамматических категорий. Если в этом возрасте ребенок допускает стойкий аграмматизм (играю батиком - играю с братиком; мамой пыли магазине - с мамой были в магазине), сокращения и перестановки слогов и звуков, уподобления слогов, их замены и пропуск - это является важным и убедительным симптомом, свидетельствующим о выраженном недоразвитии речевой функции. Такие дети нуждаются в систематических логопедических занятиях до поступления их в школу.

Таким образом, к концу дошкольного периода дети должны владеть развернутой фразовой речью, фонетически, лексически и грамматически правильно оформленной.

Уровень развития фонематического слуха позволяет им овладеть навыками звукового анализа и синтеза, что является необходимым условием усвоения грамоты в школьный период. Как отмечал А.Н. Гвоздев, к семи годам ребенок овладевает речью как полноценным средством общения (при условии сохранности речевого аппарата, если нет отклонений в психическом и интеллектуальном развитии, если ребенок воспитывается в нормальном речевом и социальном окружении).

### **Школьный период (от 7 до 17 лет)**

Продолжается совершенствование связной речи. Дети сознательно усваивают грамматические правила оформления свободных высказываний, полностью овладевают звуковым анализом и синтезом. На этом этапе формируется письменная речь.

Итак, развитие детской речи - это сложный и многообразный процесс. Дети не сразу овладевают лексико-грамматическим строем, словоизменениями, словообразованием, звукопроизношением и слоговой структурой. Одни языковые группы усваиваются раньше, другие - значительно позже. Поэтому на различных стадиях развития детской речи одни элементы языка оказываются уже усвоенными, а другие - лишь частично. Усвоение



фонетики тесно связано с общим поступательным ходом формирования лексико-грамматического строя русского языка.

### Литература

1. Кулагина, И.Ю. Возрастная психология: Развитие человека от рождения до поздней зрелости / И.Ю. Кулагина, В.Н. Колюцкий. – М.: Сфера, 2001 – С.125
2. Ishmatova, O. (2023). THE EFFECTIVENESS OF USING PHONETIC RHYTHM IN SPEECH DEVELOPMENT OF CHILDREN WITH SPECIAL NEEDS. *Science and innovation*, 2(B5), 232-236. <https://cyberleninka.ru/article/n/the-effectiveness-of-using-phonetic-rhythm-in-speech-development-of-children-with-special-needs>
3. Ishmatova, O. S. (2023). THE USE OF PHONETIC RHYTHMICITY AS A SCIENTIFIC-METHODICAL PROBLEM IN THE DEVELOPMENT OF THE SPEECH OF SPECIAL NEEDS ELEMENTARY SCHOOL STUDENTS. *FAN, TA'LIM VA AMALIYOTNING INTEGRASIYASI*, 4(5), 22-26. <https://journal.bilig.uz/isepsmj/article/download/1265/1432>
4. Xusnuddinova, Z. X. (2023). Alohida ehtiyojli boshlang'ich sinf o'quvchilarining og zaki nutqini rivojlantirishda yangi metodikalar va ulardan foydalanishning amaliy asoslari. *Ta'lim tizimida yangi metodikalar va ulardan foydalanishning amaliy asoslari*, 1(1), 365-368.
5. Ishmatova, O. S. (2023). Phonetic rhythmic exercises in working on speech sounds. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 13(1), 79-85.
6. Кодирова, Ф. У. (2023). РОЛЬ ПСИХИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ В РАЗВИТИИ РЕЧИ РЕБЕНКА: ВЫВОДЫ ИЗ НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 33(2), 100-104.
7. Кодирова, Ф. У., Рискулова, А. У. (2023). РАБОТА С РОДИТЕЛЯМИ ДЕТЕЙ С ОСОБЕННОСТЯМИ В РАЗВИТИИ. *SCHOLAR*, 1(16), 93-101.
8. Кодирова, Ф. У. (2023). СИНДРОМ ДАУНА И ЕГО КЛИНИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИЗНАКИ. *Journal of new century innovations*, 41(1), 149-153.
9. Кулагина, И.Ю. Возрастная психология: Развитие человека от рождения до поздней зрелости / И.Ю. Кулагина, В.Н. Колюцкий. – М.: Сфера, 2001 – С.125



## ДАСТЛАБКИ ШАРТНОМА ВА ОПЦИОН ШАРТНОМАСИ, УЛАР ЎРТАСИДАГИ ҲУҚУҚИЙ ФАРҚЛАР

*Мустақил тадқиқодчи: “ОСТОВАНК” АЖ  
Муаммоли активлар билан ишлаш департаменти  
директори – Наврузжон Мусаев*

**Аннотация.** Муаллиф томонидан фуқаролик муомаласида дастлабки шартнома ва опцион шартномаси, улар ўртасидаги ҳуқуқий фарқлар, опцион шартномасидан фойдаланиш масалалари, унинг предмети, келажакдаги истикболлари, шартнома тузиш учун опцион юбориш тартиб-таомиллари юзасидан хориж тажрибаси ўрганилган ва буни миллий қонунчиликда қўлланилиши юзасидан изланиш олиб борилди.

**Калит сўзлар:** Шартнома, дастлабки шартнома, Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик Кодекси, опцион шартномаси, тартиб-таомиллар, фуқаролик муомаласи, оферта.

1688 йилги “Чалкашлик”лар китобида Амстердам фонд биржасидаги “опцион” савдолари шундай тасвирланади: “Сиз учун фақат чекланган хавфлар бўлади, даромад еса сизнинг барча тасаввурларингиз ва умидларингиздан ошиб кетиши мумкин<sup>1</sup>”.

Опцион молиявий инструмент сифатида 1690-йилларда Англияда савдосотикда қўлланилган. Ҳозирда ғарб мамлакатларида опцион кўчмас мулк олди-сотдисида, корпоратив акцияларнинг айланмасида, кинофилм саноатида, масалан, кино ёки театр продюссерлари кўпинча маълум бир китоб ёки сценарийни драматизация қилиш ҳуқуқини берадиган опционни сотиб олишади, лекин бундан фойдаланиш мажбурият бўлмайди. Кредит линияларида опцион потенциал қарз олувчига белгиланган муддат ичида қарз олиш ҳуқуқини беради, лекин бу ҳам мажбурият бўлмайди.

Опцион битимларининг энг батафсил тузилиши Германия фуқаролик доктринасида ўрганилган. Опцион шартномаси (Options-vertrag) ва унинг асосида тузилган асосий шартнома (Hauptvertrag) нисбатига турли ёндашувларни назарда тутувчи иккита батафсил назария мавжудлигидан далолат беради.

<sup>1</sup> Teresa Corzo, Margarita Prat & Esther Vaquero (2014) Behavioral Finance in Joseph de la Vega's Confusion de Confusiones, Journal of Behavioral Finance, 15:4, 341-350, DOI: 10.1080/15427560.2014.968722



1. Шартномаларнинг бўлиниши назариясига кўра (Trennungstheorie), опцион шартномаси мустақил шартномадир, лекин айти пайтда у тайёргарлик характериға эға бўлиб, потенциал қабул қилувчига (иккинчи ҳуқуқ эғаси) бир томонлама ўз хоҳиши орқали асосий шартномани кучға киритиш имкониятини беради. Бунда секундар ҳуқуқ кўриб чиқилаётган назариянинг асосидир. Шундай қилиб, субъектив иккинчи ҳуқуқни амалға ошириш томонларнинг ҳуқуқий позициясига бевосита таъсир қилади, уларни ўзгартиришға мажбур қилади. Шартномаларнинг бўлиниши назариясига кўра, опцион шартномасида асосий шартноманинг барча муҳим шартлари бўлиши керак.

2. Яғона шартнома назарияси (Einheitstheorie) ихтиёрий мавжудлиғига асосланган (иккинчи) таклифни ўз ичига олган яғона шартнома бўйича фаолиятини талаб қилиш ҳуқуқи (Angebotsvertrag), қайсики бу ҳақида томонлар илғари келишувға эришган. Шунингдек, опцион шартномасининг мазмуниға оферта юборувчи белгиланган муддатда офертанинг мажбурийлиғига риоя қилиш мажбуриятини олиши ва компенсация тўлаш мажбуриятини олиши шарти (Бингунгсенгелт) киритилган бўлади. Шундай қилиб, ваколатли шахс опцион ҳуқуқиға эға бўлади, унинг бажарилиши асосий шартномани тузишға олиб келади.

Миллий қонунчилиғимизда ҳам опцион шартномасинининг ўхшаш конструкцияси келтириб ўтилган. Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодексининг 361-моддасига кўра дастлабки шартнома бўйича тарафлар келгусида мол-мулк бериш, ишлар бажариш ёки хизматлар кўрсатиш ҳақида дастлабки шартномада назарда тутилган шартлар асосида шартнома тузиш (асосий шартнома) мажбуриятини оладилар<sup>2</sup>.

Дастлабки шартнома асосий шартнома учун белгиланган шаклда, бордию, асосий шартноманинг шакли аниқланмаган бўлса, ёзма шаклда тузилади. Дастлабки шартноманинг шакли тўғрисидаги қоидаларға риоя қилмаслик унинг ҳақиқий саналмаслиғига сабаб бўлади.

Дастлабки шартномада асосий шартноманинг нарсасини, шунингдек бошқа муҳим шартларини белгилаб қўйиш имконини берадиган шартлар бўлиши керак. Дастлабки шартномада тарафлар қанча муддатда асосий шартномани тузиш мажбуриятини олиши кўрсатилади. Агар дастлабки шартномада бундай муддат белгилаб қўйилган бўлмаса, асосий шартнома дастлабки шартнома тузилган пайтдан бошлаб бир йил ичида тузилиши шарт.

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик Кодекси 1-қисм — Қонунчилик маълумотлари миллий базаси (<https://lex.uz/docs/111189>)





Агар тарафлар асосий шартномани тузишлари лозим бўлган муддатнинг охиригача у тузилмаса ёки тарафларнинг биронтаси ҳам иккинчи тарафга ана шундай шартнома тузиш ҳақида таклиф юбормаса, дастлабки шартномада назарда тутилган мажбуриятлар бекор бўлади.

Фуқаролик кодексидаги шарҳларда дастлабки шартномага қуйидагича таъриф берилади: “Дастлабки шартноманинг нарсаси келгусида асосий деб аталувчи бошқа шартномани тузишдан иборатдир. Бинобарин, асосий шартнома тузилиши билан дастлабки шартномадан кўзда тутилган мақсадга эришилади. Ўз навбатида, мазкур асосий шартноманинг нарсаси мол-мулк бериш, ишлар бажариш ёки хизматлар кўрсатишдан иборат Дастлабки шартномага қўйиладиган бош талаблардан бири сифатида қонунда шартноманинг шакли ажратиб кўрсатилади, яъни унинг шакли келгусида тузиладиган шартноманинг шаклида бўлиши зарур. Масалан, асосий шартноманинг нарсаси агар кўчар мулкни бошқа шахсга рента тўлаш асосида ўтказилишидан иборат бўлса, дастлабки шартнома ҳам ФКнинг 513-моддаси талабига мувофиқ, нотариал тасдиқланган бўлиши шарт. Агар асосий шартноманинг шакли белгиланган бўлмаса, ҳар қандай ҳолатда ҳам дастлабки шартнома ёзма шаклда тузилиши шарт.

Шунингдек, дастлабки шартнома қандай шартлардан таркиб топиши зарурлиги ҳам белгилаб қўйилган. Бу асосий шартноманинг нарсасини, шунингдек, бошқа муҳим шартларини белгилаб қўйиш имконини берадиган шартлар, яъни уларсиз асосий шартнома тузилган деб ҳисобланиши мумкин бўлмаган шартлардир. Дастлабки шартномага тарафларнинг ихтиёрига мувофиқ асосий шартномадан келиб чиқадиган мажбуриятларни белгилаш ва бажаришга оид бошқа шартлар ҳам киритилиши мумкин. Шу тариқа дастлабки шартнома асосий шартнома билан чамбарчас боғлиқдир. Умумий қоидага кўра, дастлабки шартномада тарафлар асосий шартномани тузиш муддатини кўрсатиб қўядилар. Агар у ёки бу сабабларга кўра бу ишни бажармаган бўлсалар, дастлабки шартнома тузилганидан кейин бир йил ичида асосий шартнома тузилиши шарт. Бу ҳолда, агар кўрсатилган муддатлар тугагунча асосий шартнома тузилмайдиган бўлса ёки тарафлардан биронтаси иккинчи тарафга ана шундай шартномани тузиш тўғрисида таклиф юбормаса, дастлабки шартномада кўзда тутилган мажбуриятлар бекор бўлади. Шунга эътибор қилиш керакки, агар кўрсатилган муддатлар ичида тараф тегишли таклифни юборишга улгурса-ю, аммо асосий шартномани тузиш таомили чўзилиб кетса ва натижада кўрсатилган муддат ўтказиб юборилса, дастлабки



шартнома токи асосий шартнома тузилгунча кучда қолаверади. Дастлабки шартнома шартномавий алоқаларнинг мустақкамланишига кўмаклашади, у келгусида асосий шартномани тузишнинг муҳим кафолати бўлиб хизмат қилади. Тарафлардан бири асосий шартномани тузишдан асоссиз равишда бўйин товласа, бошқа тараф суд тартибида бўйин товлаётган тарафни мажбурий тарзда шартнома 763 26-боб. Шартнома тушунчаси ва шартлари тузиш ва ўзига асоссиз бўйин товлаш натижасида етказилган зарарни қоплашни талаб этишга ҳақлидир<sup>3</sup>”.

Лекин шундай бўлсада, фикримизга кўра, миллий фуқаролик ҳуқуқи фанимизда опцион шартномасини тузиш механизми етарли даражада ўрганилмаган. Хусусан, унинг масаласи ҳуқуқий табиати ҳали ҳал қилинмаган. Қонунчилигимизда бу ҳуқуқий конструкция ўз аксини топмаган.

Бундан ташқари, хориж юридик адабиётларда ҳам ушбу масала бўйича қизғин мунозаралар мавжуд. Иқтисодиётда опцион шартномалари шартнома назарияси соҳасида муҳим рол ўйнайди. Жумладан, Oliver Харт<sup>4</sup> (1995, п. 90) опцион шартномалари ушланиб қолиш муаммосини юмшатиши мумкинлигини кўрсатади (инвестицияларнинг аниқ даражаси шартномада кўрсатилмаганда юзага келадиган инвестиция муаммоси).

Бирок, шартнома назариясида шартномавий томонлар келажакдаги қайта музокараларни истисно қила олмасалар, опцион шартномалари ҳали ҳам фойдали бўладими-йўқми деган мунозаралар мавжуд<sup>5</sup>.

Мутахассислар томонидан “опцион келишувини алоҳида ҳуқуқий шартнома эмас, у ҳуқуқий механизм сифатида асосий шартномадан алоҳида мавжуд бўла олмайди<sup>6</sup>” деган қарашлар мавжуд. Бунда тадқиқотчилар бу опцион асосий шартноманинг ажралмас қисми эканлигига ишонишади, шунинг учун уни опцион эгасига танлаш ҳуқуқини бериш орқали асосий шартномани тузишнинг “махсус” (таклифни қабул қилиш орқали шартнома тузиш ёки қабул қилишдан бош тортиш) усули деб таърифлайдилар.

Бошқа мутахассисларнинг қайд этишича опцион дастлабки шартнома ҳисобланади. Бу фикрнинг асосида опцион ва дастлабки шартноманинг

<sup>3</sup> Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодексига шарҳ. 1-жилд (биринчи қисм) Адлия вазирлиги. – Т.: «Vektor-Press», 2010.– 816 б.–(Профессионал (малакали) шарҳлар).

<sup>4</sup> Hart, Oliver (1995). *Firms, contracts, and financial structure*. Clarendon Press.

<sup>5</sup> Lyon, T. P.; Rasmusen, E. (2004). ["Buyer-Option Contracts Restored: Renegotiation, Inefficient Threats, and the Hold-Up Problem"](#) (PDF). *Journal of Law, Economics, and Organization*. 20 (1): 148-169. doi:10.1093/jleo/ewh027. ISSN 8756-6222.

<sup>6</sup> Бородкин В. Г. Опционный договор в проекте изменений в Гражданский кодекс // Московский юрист. 2013. № 2. С. 78–88.



умумий белгилари борлиги билдирилади. Бунда шартномаларнинг ташкилий сифати биринчи ўринга қўйилади.

Фуқаролик ҳуқуқида ташкилий шартномаларга қуйидагича таъриф берилади: Ташкилий шартномалар бу томонлар ўртасида мол-мулк олди-сотдисини расмийлаштиришни мақсад қилмайдиган, томонлар ўртасида келажакдаги содир бўлиши мумкин бўлган фуқаролик ҳуқуқи объектларни бегоналаштириш ёки қабул қилиш бўйича маълум бир муносабатларни ҳуқуқий тартибга солиш учун ишлатиладиган шартномалар тушунилади.

Дастлабки шартнома ва шартнома тузиш учун опцион келишуви ўртасидаги бошқа фарқларга қуйидагилар кириши мумкин:

1. Дастлабки келишув фақат ташкилий характердаги мажбуриятнинг пайдо бўлиши учун асосдир: у қарши мулкый топширишлар бўйлишини назарда тутмайди.

Опцион келишуви ҳам ташкилий, ҳам мулкый характердаги мажбурият учун асосдир. Яъни Шартнома тузиш учун опцион келишуви ҳақ эвазига ва ёки маълум бир ҳуқуқни тақдим этиш табиатига эга.

2. Дастлабки шартнома иккала томонни ҳам асосий шартномани тузишга боғлайди, лекин опцион фақат таклиф қилувчини боғлайди, потенциал қабул қилувчига эса асосий шартномани тузиш ҳуқуқи берилади, аммо бу мажбурият ҳисобланмайди.

3. Дастлабки шартнома моделини танлашда, асосий шартномани тузишдан бўйин товланган тақдирда, суд томонидан мажбурлаш механизми қўлланилиши мумкин. Опционни амалга оширишда асосий шартнома қайтариб бўлмайдиган таклифни қабул қилгандан сўнг автоматик равишда тузилади. Шундай қилиб, шартнома тузиш учун опцион келишуви табиатан дастлабки шартнома ҳисобланмайди.

Опцион махсус шартнома механизми бўлиб, ушбу шартнома тузилмаларининг ўзига хослиги шундаки, улар шартномаларнинг анъанавий таснифларига мос келмайди, улар бир махсус шартнома тузилмасига хос бўлган зарур хусусиятларга эга бўлган шартнома мажбуриятларининг деярли ҳар қандай турларига нисбатан қўлланилиши мумкин.

Опцион бир томонга бир томонлама ҳуқуқ берилганлиги билан тавсифланади, иккинчи томон келишилган муддат ичида ваколатли томоннинг қарорини кутишга мажбур бўлади. Юқоридаги таъриф ушбу шартномавий механизмдан фойдаланиб, деярли ҳар қандай турдаги фуқаролик шартномасини тузиш мумкинлигини кўрсатади, масалан, етказиб бериш



шартномасини тузиш имконияти, сотиб олиш шартномасини тузиш имконияти ва бошқалар.

Лекин опционнинг бир нечта камчиликлари ҳам мавжуд. Опцион механизмларининг бундай шакли томонлар учун энг мақбул шаклни танлашни талаб қилади. Шунинг учун тузиш керакки, ушбу танлов турли хил ҳуқуқий оқибатларга олиб келади, шу жумладан опцион ҳуқуқини бошқа шахсга ўтказиш, опцион берилган тақдирда, опцион шартномаси шартларини бажармаслик, бузилган ҳуқуқларни ҳимоя қилиш йўллари ва механизмлари ишлаб чиқиши лозим.

Опционнинг ҳуқуқий табиатини тўлиқроқ тушуниш учун иккинчи ҳуқуқ яъни ҳуқуқи вужудга келтирувчи ҳуқуқ тушунчасига (секундар ҳуқуқ) мурожаат қилиш керак.

“Секундар ҳуқуқ” (gestaltungsrechte) конструкциясини 1903 йилда Берлинда ушбу мавзу бўйича монография нашр этган немис цивилисти Е.Зеккел таклиф қилган. Кейинчалик у яратган назария немис фуқаролик қонунчилигида ҳукмронлик қилди. Секундар ҳуқуқларни субъектив ҳуқуқларнинг алоҳида тури сифатида тан олган Е. Зеккел уларни “бир томонлама битим орқали муайян ҳуқуқий муносабатларни ўрнатиш имкониятини яратадиган ҳуқуқлар деб таърифлаган<sup>7</sup>”.

Секундар ҳуқуқ ўзига хослиги шундаки, у контрагентнинг ҳаракатлари ҳисобига эмас, ваколатли томоннинг ўз ҳаракатларига боғлиқ бўлади. Бошқача қилиб айтганда, контрагентнинг мажбурияти у билан боғлиқ бўлмайди. Секундар ҳуқуқ фақат контрагентнинг ҳаракатларини “боғлайди” ва бу “боғлиқлик” иккинчи томоннинг тўғри хатти-ҳаракатларида, яъни контрагентнинг таклифни қабул қилишини кутиши ва учинчи шахслар билан асосий шартнома тузишдан бош тортиши зарурлигида ифодаланади. Шу билан бирга, контрагентнинг тўғри хатти-ҳаракати секандар ҳуқуқи билан бевосита боғлиқ бўлмайди.

Шартнома тузиш опциониди қабул қилиш фақат бундай опцион билан белгиланган шарт пайдо бўлганда, шу жумладан томонлардан бирининг иродасига қараб кўрсатилиши мумкинлиги белгиланган.

Опцион шартномаси, аксинча, алоҳида шартнома тузилишини ўз ичига олмайди ва томоннинг иродаси натижасида алоҳида шартноманинг пайдо бўлишига олиб келмайди, чунки контрагентлар аллақачон шартнома

<sup>7</sup> Вакулина Г.А. “О секундарных правах в науке гражданского права РОССИИ” // *Фундаментальные исследования*. – 2008. – № 11. – С. 60-61;



доирасида (сотиб олиш ва сотиш, бартер, шартнома ва бошқ.) ва бир томоннинг иродаси фақат маълум шартларда олдин мавжуд бўлган шартноманинг кучга киришига ҳисса қўшади.

Опцион шартномасида томонлар улардан бирига битимни амалга оширишни бошлаш ҳуқуқини, иккинчисига — ваколатли томоннинг иродасини кутиш мажбуриятини юклашади. Шартнома тузиш учун опционда асосий шартнома тузилгунга қадар томонлар мажбуриятларнинг бажарилишини талаб қилишга ҳақли емас. У фақат бундай шартнома тузишни талаб қилиш ҳуқуқига эга бўлади

Опцион шартномалари ўзига хос ҳуқуқ ва мажбуриятлар тўпламига эга, унинг ўзига хос хусусияти шундаки, бир томон — харидор — шартнома бўйича даъво қилишнинг асосий ҳуқуқига эга, иккинчиси — сотувчи — бу талабни бажариш учун умумий мажбуриятга эга бўлади. Шу билан бирга, томонларнинг ҳар бири турдош ҳуқуқ ва мажбуриятларга эга бўлишади.

Шундай қилиб, опцион шартномаси, шартнома тузиш учун опционнинг ҳамда дастлабки шартноманинг ҳуқуқий хусусиятларини таҳлил қилиш натижаларини сарҳисоб қилган ҳолда, биз иккита мустақил опцион шартномаси ва шартнома тузиш учун опцион тузилмаларини норматив ҳуқуқий тартибга солиниши мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз. Гарчи ҳозирги вақтда улардан бирортасидан фойдаланишнинг самарадорлиги ва устуворлигини аниқ баҳолаш ҳали ҳам имконсиз бўлсада, янги фуқаролик қонунчилигида ушбу ҳуқуқий тузилмаларнинг ўз аксини контрагентлар ўртасидаги муносабатларни соддалаштириш, уларга қулайликлар яратиш йўлидаги тўғри қадам бўлади.

#### **Фойдаланилган адабиётлар:**

- 1) Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик Кодекси 1-қисм — Қонунчилик маълумотлари миллий базаси (<https://lex.uz/docs/111189>)
- 2) Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодексига шарҳ. 1-жилд (биринчи қисм) Адлия вазирлиги. – Т.: «Vektor-Press», 2010.– 816 б.– (Профессионал (малакали) шарҳлар).
- 3) Вакулина Г.А. “О секундарных правах в науке гражданского права России” // *Фундаментальные исследования*. – 2008. – № 11. – С. 60-61;
- 4) Hart, Oliver (1995). *Firms, contracts, and financial structure*. Clarendon Press.
- 5) Lyon, T. P.; Rasmusen, E. (2004). "Buyer-Option Contracts Restored: Renegotiation, Inefficient Threats, and the Hold-Up Problem" (PDF). *Journal*



of Law, Economics, and Organization. 20: 148  
169. doi:10.1093/jleo/ewh027. [ISSN 8756-6222](#).

- 6) Бородкин В. Г. Опционный договор в проекте изменений в Гражданский кодекс // Московский юрист. 2013. № 2. С. 78–88.
- 7) Midland Bank Trust Co. Ltd. Vs Green (1981) AC 513, (1981) 1 All ER 153, (1981) WLR 28, 42 P&CR 201 (44 CLJ 284). URL: <http://e-lawresources.co.uk/Land/Midland-Bank-v-Green.php>
- 8) Mattias Sander. Bondesson's Representation of the Variance Gamma Model and Monte Carlo Option Pricing. Lunds Tekniska Högskola 2008.
- 9) Teresa Corzo, Margarita Prat & Esther Vaquero (2014) Behavioral Finance in Joseph de la Vega's Confusion de Confusiones, Journal of Behavioral Finance, 15:4, 341-350, DOI: 10.1080/15427560.2014.968722





## МИНТАҚА ИҚТИСОДИЙ САЛОҲИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ИННОВАЦИОН ФАОЛИЯТНИ ШАКЛЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ

---

*Шаропов Ойбек Олимович - Қашқадарё вилояти  
Қитоб тумани ҳокимининг Ёшлар сиёсати,  
ижтимоий ривожлантириш ва маънавий-марифий  
масалалар бўйича ўринбосари*

**Аннотация:** Мақолада инновацион иқтисодиёт шаклланиши шароитида минтақа саноатини ривожлантиришнинг ривожлантириш йўналишлари ёритилган. Шунингдек, минтақа иқтисодий салоҳиятини ривожлантиришда инновацион фаолиятни шакллантириш масалалари ривожлантириш модели босқичларга ажратилган ҳолда таҳлил қилинган. Инновацион фаолиятнинг ҳудудий бошқарув органлари томонидан қўллаб-қувватланиш чоратадбирлари ишлаб чиқилган. Хулосада минтақа саноатни юқори технологик саноат тармоқларини ривожлантириш бўйича тадбирлар мажмуи берилган.

**Калит сўзлар:** мамлакат, саноат, модел, минтақа, ташкилий, иқтисодий, механизм, алгоритм, ислохот, иш ўринлари.

Мамлакатимизнинг иқтисодий қудратини мустаҳкамлаш, инсонларнинг моддий ва маънавий неъматларга бўлган эҳтиёжларини тўлароқ қондириш, келажакда эса – уларнинг фаровонлигини ошириш, иқтисодий ва илмий техника соҳасида энг ривожланган давлатлар қаторидан жой олиши минтақа иқтисодий салоҳиятини ривожлантиришга бевосита боғлиқдир. Бозор иқтисодиёти жадал суръатлар билан ривожланаётган шароитда давлатнинг иқтисодий стратегияси узок муддатга мўлжалланган фундаментал мақсадларни ўртага қўйиш билан бир қаторда, бу мақсадларга эришиш воситалари, йўллари белгилашни ҳам ўз ичига олади. Булар орасида минтақа иқтисодий салоҳиятини ривожлантириш масалалари асосий ўринда туради. [7]

Минтақадаги саноат корхоналарини қувватлашнинг яна бир воситаси сифатида солиқ сиёсати воситаларидан фойдаланиш ҳисобланади. Қонун ҳужжатларида саноат ишлаб чиқаришини ривожлантириш учун солиқ ва божхона имтиёзларини ажратиш, солиқ таътилларини узайтириш бўйича чоратадбирлар кўзда тутилиши лозим. Солиқ сиёсати воситаларидан ташқари кредит сиёсати воситаларидан ҳам фойдаланиш муҳим ҳисобланади [4].



Минтака иқтисодий салоҳиятини ривожлантиришда муҳим масалалардан бири минтакада инновацион муҳитни шакллантириш ҳисобланади. Иқтисодий ривожланишнинг инновацион йўлига ўтиш орқали минтака иқтисодиётининг стратегик аҳамиятга эга бўлган тармоқларини замон талабларига мос ҳолда ривожлантириш ва сифат жиҳатдан янгилаш учун замин яратилади. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев таъкидлаб ўтганидек, - “Бугун биз давлат ва жамият ҳаётининг барча соҳаларини тубдан янгилашга қаратилган инновацион ривожланиш йўлига ўтмоқдамиз. Бу бежиз эмас, албатта. Чунки замон шиддат билан ривожланиб бораётган ҳозирги даврда ким ютади? Янги фикр, янги ғояга, инновацияга таянган давлат ютади”. Инновацион фаолият иқтисодиётимизни мутлақо янги асосда ташкил этиш ва янада эркинлаштириш, ишлаб чиқаришни модернизация ва диверсификация қилиш, жадал суръатлар билан ривожланаётган бозор муносабатлари шароитида ишлаб чиқарилаётган маҳсулотларни доимий тарзда сифатини яхшилаб янги маҳсулотлар ва хизматлар яратилишига, истеъмолчилар талабларини қондириш учун илмий-техник тараққиётнинг технологияларини энг янги ютуқларини ишлаб чиқаришга жорий этилишига замин яратади. Минтака иқтисодий салоҳияти айнан инновацион ғоялар, инновацион ёндашувлар асосида таъминланади. Бу эса, ўз навбатида, инновацион фаолиятни юзага чиқишига ҳамда инновацион бошқарувни жорий қилинишга сабаб бўлади. [5] Маълумки, минтака инновацион фаолиятини ривожлантириш омиллари бўлиб илмий-техникавий ва ишлаб чиқариш салоҳиятининг ўзига хос хусусиятлари ҳисобланади. Бу омиллар: инновацияларни ижтимоий ва 8 экологик муаммолари, инновацион инфратузилмани шакллантириш, кичик инновацион тадбиркорликни асосан минтакавий хусусияти, инновацион фаолликни тартибга солишнинг ижтимоий-ҳуқуқий масалалари; интеллектуал мулкни муҳофаза қилиш, ташқи иқтисодий алоқаларнинг инновацион фаолликка таъсири, бандликнинг миқдор ва сифат жиҳатидан таркиби ва ҳ.к. киради. [1]. Замонавий бозор талабларидан келиб чиққан ҳолда, Қашқадарё вилояти иқтисодий салоҳиятини ривожлантириш мақсадида инновацион фаолиятни шакллантириш омилларига алоҳида эътибор қаратилмоқда. Жумладан, вилоятда кичик инновацион тадбиркорликни ривожлантириш масалаларига алоҳида эътибор қаратилмоқда. Қашқадарё вилояти иқтисодий салоҳиятини ошириш ҳамда аҳоли ҳаёт даражаси ва фаровонлигининг барқарор ўсишига имкон берувчи фаол тадбиркорликни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш ва рағбатлантиришга,



инновацион ғоя ва технологияларни жорий этишга, фан ва инновацион фаолият жадал ривожланиши учун зарур шарт-шароитларни яратишга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Шу билан бирга, минтақада иктисодий салоҳиятни ривожлантиришда инновацион фаолиятни шакллантириш учун кенг имкониятлар тизимидан фойдаланиш мақсадга мувофиқ. [3]. Жумладан: биринчидан, минтаканинг мавжуд ресурс базаси ва салоҳиятини ҳисобга олган ҳолда илғор ва замонавий инновацион ишланмалар, технологик лойиҳалар-стартаплар ва инновациялар бозорини тизимли таҳлил қилиш йўлга қўйиш; иккинчидан, инновацион лойиҳалар-стартапларга инвестицияларни жалб этиш, ишлаб чиқариш ва хизматлар кўрсатиш соҳасига инновацияларни фаол жорий қилувчи иқтидорли тадбиркорлар фаолиятига кўмаклашиш ва мувофиқлаштириш ишлари лозим даражада амалга ошириш; учинчидан, инновацион ривожланиш соҳасида, айниқса, жойларда ишбилармонлик муҳити янада ошириш, шунингдек, инновацион ва муваффақиятли технологик лойиҳалар-стартапларни ишлаб чиқиш ва илгари суриш бўйича зарур кўникмаларга эга тадбиркорларни қупайтириш; тўртинчидан, инновацион ғоялар, ишланмалар ва технологияларнинг маълумотлар базасини яратиш, янги ресурсларни яратиш ва тажрибани бизнес-тузилмаларга ўтказиш амалиётини ривожлантириш; бешинчидан, инновацион ишланмалар бозорини қўллаб-қувватлаш механизмларини мукамал ишлаб чиқиш, инновацион ғоялардан самарали фойдаланишни мувофиқлаштириш, инновацион ишланмаларнинг сифатини яхшилаш ва бозор талабларига жавоб беришини таъминлаш; олтинчидан, инновацион ишланмалар, технологик лойиҳалар-стартаплар соҳасига техника олий таълим муассасалари битирувчилари ва иқтидорли ёшларни жалб этишга, шунингдек, бизнес-инкубаторларни яратишга эътибор қаратиш; еттинчидан, аҳоли ўртасида инновацион тадбиркорликни оммалаштириш ишларини самарали олиб бориш, инновацион маҳсулот ва хизматларни ишлаб чиқишга ва илгари суришга техник ва психологик тўсиқларни олиб ташлаш.

Инновацион иқтисодиётга ўтиш шароитида илм-фан ва техника ютуқларидан самарали фойдаланган ҳолда минтақа саноатини ривожлантиришда замонавий инновацион технологияларни татбиқ этишнинг тўғри усулини жорий этиш ҳам муҳим шартлардан бири бўлиб қолмоқда [2].

Жаҳон тажрибаси кўрсатишича, ишлаб чиқаришни бақарор ривожланиши ва узоқ муддатли истиқболда унинг рақобатдошлигини қўллаб-қувватлаш нафақат минтаканинг ресурс имкониятларига, балки



инновациялар ва инновацион салоҳиятига ҳам боғлиқ. Инновацион иқтисодиёт иқтисодиётнинг энг юқори ривожланган тури ҳисобланади ва у учун билимли жамият хосдир. [6]

Хулоса шуки, минтақа салоҳиятини ривожлантиришдан мақсад ялпи ҳудудий маҳсулот таркибида саноатнинг ҳиссасини ошириш, бу билан аҳолининг турмуш фаровонлигини яхшилаш мақсадида саноатни юқори технологик саноат тармоқларини мажмуини яратишдан иборат.

#### **Фойдаланилган манбаалар:**

1.Ахмедов Т.М. Управление территориальной организацией производительных сил и мажмуаным развитием регионов Узбекистана: иқти. Фан. Докт. Илм. Даража. олиш учун дисс. автореф. – Тошкент, 1992 – 26 б.

2.Баранчеев В.П.,Масленникова Н.П.,Мишин В.М.Управленияинновациями: учебник. – Москва: Юрайт, 2015 – 711 с.

3.Вахабов А.В. Инсонкапиталинингинвестицион самарадорлигинибаҳолашнинг услубий асослари // Миллий иқтисодиёт тармоқларида олиймаълумотли кадрларга бўлган эҳтиёжни баҳолаш ва прогнозлаштириш.Илмий мақолалар тўплами. – Тошкент: Lesson Press. 2017 – Б.5-12.

4.Назарова Р.Управление Узбекистане на основе инновационного развития в условиях глобализации:автореф докт.эконом.наук. – Тошкент: ТГЭУ, 2011 – 17 с.

5.Назаров Ш.Х. Эндогенные факторы конкуренто-способности региона и их эконометрическое тестирование // Регион: экономика и социология, 2013 – №4. – С. 316-329.

6. 13.Йўлдошев Н.Қ.,Мирсаидова Ш.А.,менеджмент: дарслик – Тошкент: ТДИУ, 2011 – 286 б.

7.Mahmudov M.F. Features of effective useage of industrial potential in Kashkadarya region. Научные исследования. №2 (28) (2019)



## ТАЪЛИМНИ ИШЛАБ ЧИҚАРИШ БИЛАН БОҒЛАНИШДА ТАЪЛИМ МЕТОДЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ

*Шаропов Ойбек Олимович - Кашкадарё вилояти  
Китоб тумани ҳокимининг Ёшлар сиёсати,  
ижтимоий ривожлантириш ва маънавий-марифий  
масалалар бўйича ўринбосари*

**Аннотация:** Ушбу тезисда таълимни ишлаб чиқариш билан боғланишда таълим методларидан фойдаланишнинг асосий йўллари ва бу орқали аҳолини иш билан бандлигини таъминлаш бўйича мамлакатимиз иқтисодиёти ўрганилган, ишсизликни келтириб чиқарадиган омиллар ёритиб берилган.

**Калит сўзлар:** иқтисодиёт, инвестиция, имтиёз, ишлаб чиқариш, аҳоли, бандлик, ишсизлик, иш ўринлари, меҳнат мигрантлари, ўз- ўзини банд қилиш, таҳлил.

Мустақил тараққиёт даврида мамлакатимизда сиёсий, иқтисодий, ижтимоий ва маънавий-маърифий соҳаларда амалга оширилаётган ислохотлар, қўлга киритилаётган муваффақиятлар ҳамда улкан бунёдкорлик ишлари ўз тақдирини юрт тақдири ва келажаги билан ҳамоҳанг кўрувчи ҳар бир юртдошимизнинг ҳаётида янгича маъно-мазмун касб этиб бормоқда.

Жамиятнинг барча жабҳаларидаги юксалишда таълим-тарбия соҳасидаги ислохотлар ҳам ўз ўрнига эга бўлди. Юртимизда бу соҳага муҳим эътибор қаратилиши замирида – ўз истиқболини эл-юрт эртасида кўрувчи баркамол авлод тарбияси ётгани, шубҳасиз.

Ҳаракатлар стратегиясини Фаол тадбиркорлик, инновацион ғоялар ва технологияларни қўллаб-қувватлаш йилида амалга оширишга оид Давлат дастури вазифаларидан келиб чиқиб, таълим-тарбия сифатини оширишга оид “Йўл харитаси” ишлаб чиқилди<sup>1</sup>. Унга кўра, энг илғор тажриба ва инновацион методлар, ахборот-коммуникация технологияларини кенг жорий этган ҳолда олий таълим муассасаларида бакалавр йўналишда таълим олаётган талабалар учун таълимни ишлаб чиқариш билан интеграциясини яхшилаш бўйича кўплаб ишлар амалга оширилмоқда. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 27 июль ПҚ-3151-сон “Олий маълумотли

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони



мутахассислар тайёрлаш сифатини оширишда иқтисодиёт соҳалари ва тармоқларининг иштирокини янада кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарорида ҳам республикаимиз ҳудудларини ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш учун замон талабларига жавоб берадиган юқори малакали кадрларни ўз вақтида зарур ихтисосликлар бўйича иқтисодиёт соҳалари ва тармоқлари эҳтиёжидан келиб чиққан ҳолда тайёрлаш, олий таълим мазмунини бевосита корхоналар, муассасалардаги техника, технология, ишлаб чиқариш муносабатларига ҳамда истиқболли ривожланиш дастурларига мувофиқ шакллантириш таълимни ишлаб чиқариш билан боғлаш масаларига алоҳида эътибор қаратгандир<sup>2</sup>.

Ушбу масаларни ҳал этишда олий таълим муассалари янги авлод ўқув қўлланмаларини яратиш ва олий таълим тизимига кенг татбиқ этиш, олий таълим муассасаларини замонавий ўқув-методик ва илмий адабиётлар билан таъминлаш, жумладан, энг янги хорижий адабиётларни сотиб олиш ва таржима қилиш негизида ахборот-ресурс марказлари фондларини мунтазам янгилаб боришга алоҳида эътибор беришлари лозим бўлади.

Ҳозирги замон ишлаб чиқаришидаги кўпгина касблар фақат маълумотли кишиларгина эмас, ижодий қобилиятга эга мустақил фикрлай оладиган касб эгаларини жалб қилишни талаб қилмоқда. Бу борада ҳудудий бошқарув органлари, энг аввало, мамлакатимиз туман ва шаҳарлари ҳокимликлари учун малакали кадрлар тайёрлашга алоҳида эътибор қаратиш зарур. Шу нуқтаи назардан Ўзбекистонда амалга оширилаётган узлуксиз таълим тизимининг ислоҳоти таълимда кўп қоидаларнинг ўзгартирилишини, илмий асосланган янги тизимнинг шаклланишини ва корпоратив ҳамкорликни кенг йўлга қўйишда ишлаб чиқилган назарий билимларимизни ишлаб чиқаришга татбиқ этишни тақозо этади. Ёшларга таълим ва тарбия бериш билан бирга эгаллаган билимларини корпоратив ҳамкорликда бевосита ишлаб чиқариш корхоналари билан боғлашда мураккаб вазифаларини ҳал этиш таълим берувчининг ғоявий эътиқоди, касб маҳоратига, санъати, истеъдоди ва маданиятига боғлиқдир. Ҳозирги замон дарси учта мақсадни: таълим, тарбия ва инновацион корпоратив ҳамкорликда ривожлантириш мақсадларини кўзда тутди. Шундай экан, малакали кадрлар тайёрлаш жараёнининг ҳар бир босқичида таълимни самарали ташкил этиш, уни юқори босқичларга кўтариш борасида муайян

---


<sup>2</sup> *Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий маълумотли мутахассислар тайёрлаш сифатини оширишда иқтисодиёт соҳалари ва тармоқларининг иштирокини янада кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида Қарори, 27.07.2017 йилдаги ПҚ-3151-сон*





вазифаларни амалга ошириш лозим. Бунда албатта таълим методларидан кенг фойдаланилади, таълим методлари қуйидаги асосий функцияларни бажаради. Таълим методларидан фойдаланиш кўлами, ҳолати ўқитувчининг касбий тайёргарлиги ва маҳорати даражасига боғлиқ ҳолда ўзгаради. Бу функциялар таълим методини қўллаш жараёнида бир-биридан ажратилган ҳолда ёки кетма-кет жорий этилмайди, аксинча бир-бирига ўзаро сингиб кетади. Мисол учун, ташҳисли функция ўқитувчининг бир қатор методлардан яхлит фойдаланиши эвазига бажарилади.

#### *Тарбия методларининг асосий функциялари*



Таълим методларини танлаш қуйидаги мезонлари асосида аниқланади:

- дидактик мақсад асосида;
  - таълим мазмуни асосида;
  - ўқувчиларнинг ўқув кўникмаларини эгаллаш ва ривожланиш даражаси асосида;
  - ўқитувчининг тажрибаси ва касбий тайёргарлик даражаси асосида.
- Бунда таълим тизими субъектлари бўйича таълим сифатига таъсир этувчи омилларни қуйидагича гуруҳлаб олиш мақсадга мувофиқ:
- таълим сиёсатини ишлаб чиқувчи органга боғлиқ омиллар;
  - таълим муассасасига боғлиқ омиллар;
  - таълим олувчига боғлиқ омиллар;
  - истеъмолчиларга боғлиқ омиллар;
  - таълим муассасаси ва истеъмолчилар инновацион корпоратив ҳамкорлигига боғлиқ омиллар.



Қайд этилган ҳар гуруҳда таълим сифатига бевоста ва билвосита таъсир этадиган омиллар мавжуд бўлиб, улар таълим сифатининг ижобий ёки салбий тарафга ўзгаришига таъсир этади.

Юқоридаларни хулоса қилиб айтишимиз мумкин, замонавий таълим тизимида нафақат кадрлар тайёрлаш билан шуғулланиш, балки ишлаб чиқаришга жалб этиб таълим сифатини ошириш механизмларини аниқлашга оид илмий тадқиқотлар олиб бориш ҳам зарур ҳисобланади. Дунё таълим хизматлари таркибида ишлаб чиқаришни ривожлантириш бўйича янгиликлар яратиш ва бошқа турли хизматлар кўрсатиш мамлакатнинг халқаро ҳамжамиятдаги нуфузини ошириш имконини беради, инвестициявий жозибadorлигимизни таъминлади.

#### **Фойдаланилган манбаалар:**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони;

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий маълумотли мутахассислар тайёрлаш сифатини оширишда иқтисодиёт соҳалари ва тармоқларининг иштирокини янада кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида Қарори, 27.07.2017 йилдаги ПҚ-3151-сон;



## SHASHMAQOM IS THE BASIS OF OUR CLASSICAL MUSIC

